

**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

Qo‘lyozma huquqida

UDK: 373.2:37.09:005(575.1)

**AKMALOVA MOHINUR ZAFAR QIZI**

**ZAMONAVIY FORMATSIYADAGI IJTIMOIY MUHITDA  
MAKTABGACHA TA’LIM MENEJERINI SHAKLLANTIRISH  
JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.07 – Ta’limda menejment

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy  
darajasini olish uchun yozilgan  
**DISSERTASIYA**

**Ilmiy rahbar: Sharipov Shavkat Safarovich  
pedagogika fanlari doktori, professor**

**Toshkent – 2023**

## MUNDARIJA

<b>KIRISH.....</b>	<b>3</b>
<b>I BOB. ZAMONAVIY FORMATSİYADAGI İJTİMOİY MUHİTDA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKİLOTI MENEJERINI TAYYORLASHNING NAZARIY ASOSLARI .....</b>	<b>11</b>
<b>1.1-§. Zamonaviy formatsiyadagi maktabgacha ta'lif tashkiloti – yangi O'zbekiston ijtimoiy muhitda.....</b>	<b>11</b>
<b>1.2-§. Yangi O'zbekistonda maktabgacha ta'lif tashkilotini boshqarish muammosi.....</b>	<b>20</b>
<b>1.3-§. Yangi formatsiyadagi maktabgacha ta'lif menejerining boshqaruv faoliyatida zamonaviy yondashuv.....</b>	<b>36</b>
Birinchi bob yuzasidan xulosalar.....	52
<b>II BOB. ZAMONAVIY FORMATDAGI MAKTABGACHA TA'LIM TASHKİLOTI MENEJERINI TAYYORLASH USULI VA MODELI.....</b>	<b>51</b>
<b>2.1-§. Zamonaviy formatsiyadagi ijtimoiy muhitda maktabgacha ta'lif tashkilotini boshqarish .....</b>	<b>51</b>
<b>2.2-§. Maktabgacha ta'lif tashkiloti menejerining boshqaruv faoliyati modelini yaratish.....</b>	<b>69</b>
<b>2.3-§. Maktabgacha ta'lif menejerlarini boshqaruvda zamonaviy yondashuvdan foydalanishga o'rgatish usullari.....</b>	<b>82</b>
Ikkinchi bob yuzasidan xulosalar .....	105
<b>III BOB. ZAMONAVIY FORMATDAGI MAKTABGACHA TA'LIM TASHKİLOTI MENEJERINI TAYYORLASHNING SAMARADORLIGI VA TAJRIBA-SINOV ISHLARI NATIJALARI .....</b>	<b>108</b>
<b>3.1-§. Zamonaviy formatsiyadagi Maktabgacha ta'lif tashkilotini boshqarishda zamonaviy yondashuv modelini joriy etish bo'yicha eksperimental ishlarning samaradorligi .....</b>	<b>108</b>
<b>3.2-§. Tajriba-sinov ishlarining natijalari .....</b>	<b>116</b>
Uchinchi bob yuzasidan xulosalar.....	131
<b>UMUMIY XULOSALAR .....</b>	<b>133</b>
<b>TAVSIYALAR .....</b>	<b>135</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>	<b>139</b>
<b>ILOVALAR .....</b>	<b>150</b>

## KIRISH

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati.** Dunyoda ta’lim tizimi taraqqiyotning bosh omili sifatida belgilanganligi ta’lim tashkilotlarini, xususan mактабгача та’лим ташкілотини бoshqarishda zamonaviy yondoshuvning roli, uni yangi sifat darajasiga ko’tarish jarayonini boshqarish va nazorat qilish strategiyalarini amaliyatga joriy etishni talab etmoqda. Bu borada Yaponiya, AQSH, Rossiya kabi rivojlangan xorijiy davlatlarda mактабгача та’лим ташкілоти мenejerlarini tayyorlashda turli xil o‘zgaruvchan dasturlar, yangi texnika va texnologiyalar, vositalar hamda samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur kompetensiyalarni shakllantirish va boshqarishning turli shakllari va usullarini takomillashtirish hamda menejment asoslarini ishlab chiqishga oid amaliy loyihalarni yaratish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jahonda yuz berayotgan o‘zgarishlar ta’lim muassasasini boshqarishda menejerlardan maqsadni amalga oshirish jarayoni samaradorligini ta’minlovchi mexanizmlarni uzlusiz ishslash imkonini beruvchi usul va metodlarni yaratishni talab etadi. Shu jihatdan mактабгача та’лим ташкілотларини rivojlantirish, innovatsion g‘oyalarni amaliyatga tatbiq etishning zamonaviy usullarini yaratish, zamonaviy boshqaruv faoliyati mexanizmlarini va qonuniyatlarini chuqr anglagan, kasbiy malakali mактабгача та’лим ташкілоти мenejerlarini tayyorlash bo‘yicha tadqiqot ishlarini olib borish dolzarb vazifa sifatida belgilangan.

Yangi O‘zbekiston ijtimoiy hayotida turli sohalarda amalga oshirilayotgan maqsadli dinamik islohotlar mактабгача yoshdagi bolalarni rivojlantirish, o‘qitish, tarbiyalashning maqsadlari, vazifalari, mazmunini qayta ko‘rib chiqishni hamda strategiyani tanlab olish va amalga oshirishning me’yoriy-asoslari yaratilmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda oliy ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi ustuvor vazifalarga mos holda, ta’lim muassasalarida strategik boshqaruv tizimini qayta ko‘rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratish maqsadida keng miqyosda ishlar olib borilmoqda. O‘zbekiston

Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2909-son qarorida oliy ta’lim tizimini sifatli boshqarish bilan bir qatorda uni takomillashtirish, shuningdek, oliy ta’lim muassasalari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va modernizatsiyalash, zamonaviy o‘quv-ilmiy laboratoriyalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlash bo‘yicha chora-tadbirlar belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni [2], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” [3], 2022-yil 6-iyuldaggi PF-165-son “2022-2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” [4] hamda 2019-yil 11-iyuldaggi PF-5763-son “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” [5], 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi [6] Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldaggi PQ-3151-son “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi [8], “2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2707-sonli [9], 2017-yil 9-sentyabrdagi PQ-3261-son “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” [12], 2018-yil 30-maydaggi PQ-3755-son “Istiqbolli boshqaruv kadrlarini tanlov asosida tanlab olishning zamonaviy tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida” [11], 2019 yil 8 maydaggi PQ-4312-son “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” [10], 2021-yil 24-dekabrdagi PQ-60-son “Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta’minalash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi [7] Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 19-iyuldaggi “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 528-son Qarori [13] hamda mazkur